

РЕЗЮМЕ. Мазкур мақолада замонамизнинг долзарб масалаларидан бири бўлган суш ўзлаштирувчи талабаларнинг хусусиятларига кировчи “диқкат” омилига ва унинг механизмларига этибор қаратилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье основное внимание уделяется фактору «внимания» и его механизмам, который является одной из актуальных проблем современности, входящей в состав характеристики слабо адаптивных учащихся.

SUMMARY. This article focuses on the factor of “attention” and its mechanisms, which is one of the pressing problems of our time, which is part of the characteristics of poorly adaptive students.

AUTIST BOLALAR VA OTA-ONA MUNOSABATLARI KOMPONENTLARINI ILMIY JIXATDAN TADQIQ ETILISHI

N.R.Jumaniyozova – *psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Urganch davlat universiteti

Tayanch so'zlar: autizm, autist- bola, ota-ona, munosabat, kognitiv, emotsional, xulq-atvor, komponent.

Ключевые слова: аутизм, ребенок-аутист, родитель, отношение, когнитивный, эмоциональный, поведенческий, компонент.

Key words: autism, autistic child, parent, attitude, cognitive, emotional, behavioral, component.

Autizm muammosini o'rganishda maxsus psixologiya va korreksion pedagogika ma'lumotlariga tayanish zarur. «Autizm» tibbiy tashxis bo'lib, uning aqliy zaiflik, alaliya, shizofreniyadan farqlanishini tushunish kerak. Autizmning birinchi belgilari bola hayotining dastlabki yillarida paydo bo'ladi va qo'rquv, negativizm, tajovuzkorlik bilan namoyon bo'ladi.

Bolaning dastlabki reaksiyalari onaga nisbatan sodir bo'ladi va ular quyidagicha:

1) bolaning onaga nisbatan yaqinlik hissi, bunda bola onaga intilmaydi, ko'ziga qaramaydi va kulmaydi;

2) salbiy reaksiya turi- bunda bolaga nisbatan qo'pol munosabatda bo'linsa, u onani o'zidan uzoqlashtiradi, quchoqlamaydi, onasiga nisbatan ham salbiy harakatlar namoyon qiladi;

3) simbioz aloqa-bolani yonida onasi yo'q ekanligi tashvishlantiradi [8].

Kognitiv, emotsional, xulq-atvor komponentlari autist bola va ota-ona munosabatlari shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Ota-ona munosabatining hissiy komponenti ota-ona tomonidan bolani qabul qilish yoki rad etish darajasini aniqlaydi. Shuningdek, ota va onaning bola bilan o'zaro munosabati jarayonida kechinmalarini, o'z roliga nisbatan hissiy munosabatini aks ettiradi. Ota-ona munosabatining hissiy komponenti keng ko'rinishga ega: so'zsiz hissiy qabul qilish, shartli hissiy qabul qilish, ambivalent hissiy munosabat, befarq munosabat, yashirin hissiy rad etish, ochiq hissiy rad etishga bo'linadi [6].

Dunyo olimlari tomonidan bu borada bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, quyida ayrimlarining qarashlari bilan tanishish mumkin.

Z.Freydning psixoanaliz yondashuvi asosida, oiladagi hissiy aloqalarning tabiati tushuntirib berilgan. Ota-onalar bilan ishlashda psixoanalitik yondashuvning ahamiyati kattadir. Oilada ota-ona o'rtasida sevgi muhabbat hislarining bo'lishi farzandlar bilan bo'ladigan munosabatlar tizimiga ham ijobiy ta'sir qiladi [9].

E.Erikson o'z nazariyasida alohida inson taqdirini neofreydizm nuqtayi nazaridan talqin etadi va asosiy e'tiborni shaxs hayotining yoshlik davriga qaratadi. E.Erikson o'zining epigenez nazariyasi asosiga quyidagi taxminlarni qo'yadi:

1. Inson shaxsi, asosan, bosqichma-bosqich rivojlanadi va har bir o'sish jarayonida atrofida kengayib borayotgan ijtimoiy muhitga qiziqishi kuchayib, uni o'rganish va o'zaro munosabat qurish ishtiyoqida bo'ladi.

2. Jamiyat, asosan, individning tayyor ekanligiga va uning imkoniyatlariga mos ravishda tashkiliy tuzilma bo'lishga intiladi, shu orqali shaxs qobiliyatlarini ochib berish mumkinligini tushuntiradi. Insoniyat jamiyatiga yordam ko'rsatish aynan shundan iborat bo'lishi lozim.

E.Erikson tomonidan bolaga nisbatan nazoratni kuchliligi, bolaning o'z-o'zini boshqarish shakliga mos kelmasligi sababli nizoli vaziyatga olib kelishi tushuntiriladi. Shunday nizolar bola taraqqiyotining ayrim bosqichlarida keskin tus oladi va yosh davrlari inqirozi sifatida namoyon bo'ladi [7].

T.V.Andreyevaning tadqiqotlarida oiladagi muloqot buzilishlari o'rganilgan bo'lib, «rad etilgan muloqotlar», «dialogli aloqa», «paradoksal muloqot» shakllari tekshirilgan. Unga ko'ra, ota-onalarda muloqotning buzilishi, bir tomonlama muloqotga moyillik, ko'z bilan aloqa qilmaslik natijasida muloqot va munosabat tizimida buzilishlar yuzaga keladi. T.V.Andreyevaning fikricha, «ota-ona nazorati» bu bola faoliyatiga ta'sir o'tkazishga urinishdir. Ota-onalar tomonidan doimiy bolani nazorat qilinishi zo'rovonlik darajasini bildiradi. Ota-onalarning iliq munosabati bolani maqtashi, qo'llab-quvvatlashi uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1].

Y.I.Armatova tomonidan ota-ona va bola munosabatlarining asosiy psixologik modellari o'rganilgan. Nogiron bolaga nisbatan munosabat turlari, nogiron bolani tarbiyalashdagi qiyinchiliklar tushuntirib o'tilgan. Uning fikricha, ota-ona munosabatlari shakllanishida muloqotning umumiy, xarakterli va o'ziga xos uslublaridan foydalanish muqadga muvofiqdir. Ota-ona munosabatini aniqlashda ikkita mezon qo'llaniladi. Bular hissiy yaqinlik va nazorat darajasidir [2].

O.P.Suyetina va Y.R.Bayenskaya ota-ona va autist bola munosabatlarida oila a'zolarining o'rni ham muhimligini ta'kidlaydi. Autizm bolaga nisbatan munosabat murakkab tuzilishga ega. Bolaning kognitiv jarayonning rivojlanmaganligi va boladagi infantilizatsiya alohida tarbiya modelini yaratishni talab qiladi. Onaning ijobiy munosabatiga nisbatan bola tomonidan salbiy reaksiya namoyon qilinishi, onaning bezovtalanishiga va asabiylashishiga olib keladi. Y.R.Bayenskaya va O.P.Suyetina fikricha, bolaga munosabatning shakllanishi ijtimoiy va psixologik omillarga bog'liqdir. Bola bilan ijobiy munosabatda bo'lish uchun unga qiziqish, uni qo'llab-quvvatlash, faoliyatiga e'tibor qaratish, bolaga moslashuvchan bo'lish zarur.

B.Bettelxeym tadqiqotlari psixoanalitik yondashuvlar asosida emotsional buzilishlari bo'lgan bolalar va bolalik autizmi muammosiga bag'ishlangan. Uning fikricha, autist bolalar bilan ishlash muhim psixoterapevtik amaliyotni talab qiladi [3].

Y.Bleyler tomonidan autist bola tafakkur jarayoni alohida predmet sifatida o'rganilgan. Autist bolalar tomonidan bildirilgan fikrlar mantiqsiz fikrlash bo'lib, ma'lum bir qoidalarga bo'ysunish kuzatilmaydi. Bolaning bildirayotgan fikrlari bir-biriga unchalik mos kelmasligini ko'rish mumkin. Autist bola fikrlarida, mavjud bo'lmagan xotiradagi fikrlar namoyon bo'ladi. Bu katatim fikrlash, xayoliy, nazoratsiz voqelikni hisobga olmaydigan xohish-istak va qo'rquvlar orqali namoyon bo'ladigan fikrlashdir. U.Bleyler filogenitik nuqtayi nazaridan autistik tafakkurni «tug'ma» va «yosh» xususiyatini ta'kidlaydi.

N.N.Vasyagina ota-onalarning muammolarini yechimi sifatida psixoterapiyaning ahamiyatini tushuntirib o'tgan. Bolalarga yordam berish, ota-ona va bola o'rtasidagi hissiy munosabatlarining shakllanish omillarini tadqiq qilgan. Terapevtik dastur tuzishning talablari bo'yicha fikrlarini bildirdi. Ota-onalarga o'yin terapiyasini o'rgatish orqali ulardagi sezgirlik, tushunish, qabul qilish ko'nikmalarini

shakllantirish imkoniyatini yaratish mumkinligi ta'kidlangan.

R.M.Granovskaya ilmiy tadqiqotlarida bolalarni psixologik himoya qilish masalalariga alohida e'tibor berilgan. Kichik maktab yoshidagi bolalarni eksperimental o'rganib, bolaning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. Bolalar tomonidan muammoni yechimini topishga harakat qilish, psixologik himoya mexanizmlari to'laonli yoritib berilgan. U himoya xatti-harakatlari bolaning jinsi, yoshi va tipologik xususiyatlariga bog'liq ekanligini aniqlaydi. R.M.Granovskaya himoya tizimini o'rganish texnologiyasini ko'rib chiqib, terapevtik va profilaktik yo'nalishlarning ahamiyatini tushuntirgan.

M.A.Gulina tomonidan psixologik maslahat va terapevtik masalalar o'rganilgan. Shaxs, oila, guruh va jamiyat munosabatlarini o'rganishda, psixologik maslahat va psixoterapiyaning ahamiyatiga alohida e'tibor bergan. Barcha odamlar o'z hayotining faol va ijodiy yaratuvchisi bo'lishi kerak. Odamlarda o'z mavjudligini tasodifiyligi va passivligidan ustun turuvchi irodaviyligi uning erkinlik va o'z-o'zini qadrlash tuyg'usiga erishishga imkon beradi deb ta'kidlaydi [4].

I.B.Karvasarskaya aytishicha, ota-onalar ko'pincha farzandining autist ekanligini bilgach, qiyin vaziyatga tushishadi. Autizmni ular baxtsizlik deb hisoblashadi. Bu holat oilada va ota-onalarda umidsizlik va xafagarchilikni keltirib chiqaradi. Uning ta'kidlashicha, bu qayg'u bolaning autizmdan chiqarib olishga yordam bermaydi. Ota-onalar umid qilib kutgan farzandining autist ekanligidan aziyat chekishadi. Sog'lom farzandni tarbiyalashga qaraganda autist bolani tarbiyalashdagi qiyinchiliklar ularda stress va azob-uqubatlarni keltirib chiqaradi.

L.A.Belov tadqiqotlari inklyuziv ta'lim sohasini rivojlantirish, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun sharoitlar yaratish, nogiron va normal rivojlanayotgan bolalarni birgalikda ta'lim olishlari kerakligini alohida o'rgangan. Bog'cha, maktab ta'limida inklyuziv sinflarning ochilishi kerakligini, nogironligi bo'lgan shaxslar o'z huquqlaridan foydalana olishlari uchun sharoit yaratish kerakligini ta'kidlaydi.

Ota-ona va farzand munosabatlari oilaning salohiyatini belgilovchi yetakchi shartlardan biri hisoblanadi. Oiladagi o'zaro ikki tomonlama amalga oshiriladigan emotsional, xulq-atvor va kognitiv ta'sir orqali «ota-ona-bola» munosabatlaridagi hissiy yaqinlik, oilaning boshqa a'zolarining ta'siriga ham bog'liqdir. Bolaning o'ziga xos tarzda rivojlanishini ota-onalarda turli qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa oilaning jamiyat va yaqin insonlari tomonidan ma'naviy yordam olish imkoniyatini cheklaydi.

Bolaning noodatiy xatti-harakatlari boshqa odamlarning ko'pgina tanqidiga uchrangani sababli, ota-onalarda bolaga nisbatan salbiy his-tuyg'ulari kuchayadi. Farzandi sog'lom bo'lgan ota-onalarda autizm sindromi bo'yicha tushunchalarning yetarli emasligi, autist bolaning xatti-harakatlarini tushunmaslik, ularni ko'chada, transportda, do'konda va boshqa jamoat joylarida tanqidlariga sabab bo'ladi.

V.V.Tkacheva fikricha, bunday holatlarda ota-onalar turli ichki (psixologik) va tashqi (ijtimoiy) to'siqlarni boshdan kechiradi. Bu esa ota-ona va oilaning uzoq muddatli stress yukini ko'tarishiga sabab bo'ladi.

O.S.Nikolskaya tomonidan autizm sindromli bolani tarbiyalayotgan oilalardagi ruhiy tushkunlik holatlari uchrashi aytilgan. Uning ilmiy tadqiqot ishida autizm bola

rivojlanishida ota-onalar hissiy komponentlari muhim ekanligi ta'kidlangan. Shu maqsadda tuzilgan dasturga asosan quyidagi bosqichlar bolaning rivojlanishiga katta va tizimli yordam beradi. Bola bilan aloqa o'rnatish, o'zaro ta'sir qilish, bolani «mehnat» qilishga xulq-atvorini moslashtirish, kognitiv funksiyalarni rivojlantirish ustida ishlash, bola his-tuyg'ularini tartibga solish, muloqot orqali aloqalarni rivojlantirish.

Tashxis natijasini eshitgandan keyin ota-onalarda kuchli emotsional zo'riqish sodir bo'ladi. O'zini ayblash, tushunmovchilik, anglashning qiyinligi kabi birinchi taassurotlar keyinchalik ham saqlanib qoladi. Shu sababli autist bolaning oilasiga doimiy psixologik yordam zarur.

Autizm sindromli bolalarning oilasiga yordam berishda mutaxassislar tomonidan ta'lim va tarbiya ishlarini tizimli tashkillashtirish, uning qiyinchilik va murakkabliklarini tushuntirish lozim deb hisoblaydilar. Olib boriladigan psixokorreksion ishlarining samaradorligi, erta aralashish bilan bevosita bog'liqdir. Buning uchun mutaxassis psixiatrlar, defektologlar, psixologlar va ota-onalarning o'zaro hamkorligi juda muhimdir.

Xarakterdagi salbiy o'zgarishlarni tuzatish, bolani qabul qilish, stress, tushkunlik holatidan chiqishlariga yordamlashish, hissiy charchoqni yengish yo'llarini psixokorreksion dasturga kiritish kerak. Autist bola shaxsidagi qiyinchiliklarni tushunish, uning imkoniyatlari to'g'ri yo'naltirish, individual xususiyatlarini tushunish muammoning yechimiga xizmat qiladi.

Bolaning intellektual imkoniyatini rivojlantirish, xulq-atvoridagi agressiv holatlarini bartaraf qilish, muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga erishish asosiy maqsad bo'lishi kerak. Autizm sindromli bolalarni tarbiyalashning barcha bosqichlarida ota-onalar turli qiyinchiliklarni boshdan kechirishini tushunishi lozim. Bolaning psixologik va jismoniy rivojlanishidagi muammolar, uning ruhiy holati va imkoniyatlari, ehtiyojlarini anglab harakat qilish zarur. Oila a'zolarining psixologik qo'llab-quvvatlashi bola uchun asosiy va birinchi psixologik yordamdir. Bola uchun yaqinlarining ijobiy munosabati juda muhimdir.

Ota-onalar tomonidan o'zaro yaqinlik xissi, bola bilan faoliyatda birga bo'lish, bolaning intellekti rivojlanishiga va qiziqishlari ortishiga yordam beradi. Ammo autist bolani tarbiyalayotgan ota-onalarda autizm sindromi bo'yicha tushunchalarning mavjud emasligi munosabatlarda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bunga sabab bolaning aloqaga kirishmasligi, qisqa muddatli aloqaning mavjudligi, yaqin insonlariga ham bee'tibor bo'lish, giperaktivlik, monoton xatti-harakatlar, agressiv xulq shakllarining mavjudligidir. Shuning uchun autist bolaning ota-onasini qo'llab-quvvatlash, ularni tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam berish zarurati mavjud. Bolaning rivojlanish uchun maxsus sharoitlarni yaratish kerak.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerak, oiladagi muammolarni o'rganishdan avval oilaning xarakter xususiyatini bilish maqsadga muvofiqdir. Autist bolaning ilk yoshida namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlariga ota-onalar va yaqinlarining bee'tiborligi sabab bolaning holati og'irlashadi. Ayrim autist bola bilan ona o'rtasidagi hissiy yaqinlikning yo'qligi esa muammo qanchalik chuqur ekanligini anglash uchun yetarlidir. Chunki chaqaloqlik davridagi shakllanish jarayonida autist bolaning xarakterida xotirjamlik kuzatiladi. Bu esa bolada autizm belgilari mavjudligini anglashda qiyinchilikni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar

1. Андреева Т.В. Семейная психология. – СПб.: Речь, 2004. –С. 244.
2. Артамонова Е.И. Психология семейных отношений с основами семейного консультирования. /Е.И.Артамонова, Е.В.Зырянова //Учебное пособие для ВУЗов. –Москва: «Академия». 2001. –С.192.
3. Блейлер Е. Аутистическое мышление. Аффективность, внушение, паранойя: ИД.Алеф-Пресс, 2018. –С. 214.
4. Гулина М.А. Терапевтическая и консультационная психология. - СПб.: Речь, 2001. –С.352.
5. Никольская О.С. Структура нарушения психического развития при детском аутизме [Электр. ресурс] // Альманах ИКП. 2014. Вып. 18. Режим доступа:

6. Карабанова О.А. Психология семейных отношений основы семейного консультирования: Учебное пособие. -М.: "Гардарики", 2004. -С.320.
7. Эриксон. Э. Детство и общество СПб.: -Питер: 2019. -С. 448.
8. <https://psychlib.ru/mgppu/sps/sps-001.htm>
9. <https://psychoanalyse.ru/about/literatura/luchshie-knigi-po-psixooanalizu.-biografii-izvestnyix-psixooanalitikov/shpicz-rene-arpad/pervyy-god-zhizni.-rene-a.-shpicz.-u.-godfri-kobliner.html>

REZYUME. Ushbu maqolada autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlari komponentlarini ilmiy jihatdan o'rganilganligi tahlil qilingan. Farzandiga autizm tashxisi qo'yilgan ota-onalar tomonidan bola bilan munosabatda yaqinlik hissi, o'zaro faoliyatda birga bo'lish, bolaning bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan qiziqishlari ortishiga yordam berish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье с научной точки зрения анализируются компоненты взаимоотношений родителей и детей с синдромом аутизма. Родителям у которых ребенок диагностирован аутизм, дали рекомендации, как помочь ребенку развить чувство близости с ребенком, быть вместе в совместной деятельности, повысить интересы ребенка, направленные на развитие познавательных процессов.

SUMMARY. In this article, the components of the relationship between parents and children with autism syndrome have been analyzed from a scientific point of view. Parents whose child was diagnosed with autism gave recommendations on how to help the child to develop a sense of closeness with the child, to be together in mutual activities, and to increase the child's interests aimed at developing cognitive processes.

QADRIYATLAR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

R.Y.Kurbaniyozova – mustaqil tadqiqotchi

Urganch davlat universiteti

Tayanch so'zlar: qadriyat, ijtimoiy qadriyat, individual qadriyat, subyektiv qadriyat, o'z-o'zini anglash, munosabat, hayotiy ustuvorliklar, shaxsni o'rganish metodologiyasi, markaziy e'tiqod.

Ключевые слова: ценность, социальная ценность, индивидуальная ценность, субъективная ценность, самосознание, установка, жизненные приоритеты, методология изучения личности, центральное убеждение

Key words: value, social value, individual value, subjective value, self-awareness, relationship, life priorities, personality study methodology, central belief.

Qadriyatlar muammosi har doim dolzarb va ko'p qirrali, uning psixologiyasi yordamida shaxs nima uchun shakllanganligini tahlil qilish mumkin yoki boshqacha tarzda shaxs taqdirini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida tashqi muhitning bevosita ta'sirini o'rganish mumkin. Inson qadriyatlari har doim falsafa, etika, sotsiologiya va psixologiyaning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib kelgan.

Qadriyat - shaxsning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, bu inson uchun muhim bo'lgan har qanday obyektlar, munosabatlar, tamoyillar, g'oyalarning subyektiv ahamiyatini belgilaydi. Inson ongida qadriyat o'zi haqidagi g'oyalarda, o'z-o'zini anglashda va o'ziga munosabatda bo'ladi, ya'ni u kognitiv, hissiy va baholash xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan shaxs o'zi uchun muhim ob'ektlarga, atrofda odamlarga va hokazolarga munosabat bildiradi. Ko'p jihatdan subyektiv o'zini o'zi belgilashi va o'zini o'zi tasdiqlashining psixologik xususiyatlariga bog'liq. Ushbu o'ziga xoslik psixikaning rivojlanishi uchun o'ziga xos ichki sharoitlar rolini o'ynaydi, xususan, o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi tasdiqlash xususiyatlari shaxsning shaxsiy tajriba orttirish jarayonida subyektiv qadriyatlarni shakllantirishning asosiy mexanizmlari hisoblanadi. Ya'ni bu ma'lum bir shaxs uchun qimmatli va ustuvor bo'lgan narsa. Qadriyatlar inson hayotida ko'p narsani anglatadi. Ular shaxsiyatning o'ziga xos skeletini tashkil qiladi, unga barcha hayotiy maqsadlar tayanadi va shaxsning tamoyillari, ustuvorliklari va xatti-harakatlarini belgilaydi. Qadriyatlar shaxs, uning ichki dunyosi va uni o'rab turgan voqelik o'rtasidagi muhim bo'g'in bo'lgan dialektik subyekt-obyekt munosabatlarida mavjud bo'lgan ijtimoiy hodisa. Har bir insonning qadriyatlar tizimi, tamoyillari va ustuvorliklari har xil bo'lishi mumkin. Turli xil qadriyatlar, ustuvorliklar va tamoyillarga ega bo'lgan odamlar bir xil muhitni boshqacha qabul qilishlari mumkin. Masalan, adolatni hamma narsadan ustun deb bilgan odam bir xil muhitda bo'lgan ko'p odamlar buholatni sezmay, munosabat bildirmaydigan adolatsizlikni darhol payqaydi. Estetikaga ahamiyat beruvchi boshqa bir kishi xuddi shu muhitdagi boshqa odamlar sezmaydigan go'zallikni darhol payqab, qadrlashi mumkin. Demak, qadriyatlar, ustuvorliklar voki tamoyillarda kuzatilavotgan bundav individual farqlar zaiflik emas, balki ijtimoiy havotni bovitib turuvchi jihatdir. Insonning qadriyatlar reytingida birinchi o'rinda turadigan qiymat uning asosiy qadriyatidir. Nazariv iihatdan, insonga barcha mumkin bo'lgan qiymatlar berilsa va

ular tartiblangan bo'lsa, odam hamma narsadan ko'ra ko'proq qadrlaydigan narsadir. Psixologiya qadriyat muammosiga falsafadan boshqacha vondashadi. Psixologiyada qadriyatning ahamiyati uning obyektiv asosga asoslangan voki vo'qligida emas, balki uning inson xatti-harakatlarida qo'llanma sifatida o'vnagan rolida. Va shuning uchun ham psixolog faqat e'tiqod sifatida qadriyatlarni qabul qiladi va bu uning uchun yetarli.

Qadriyatlar ikki tomonlama xarakterga ega:

1. Ijtimoiy - ular tarixiy jihatdan belgilanadi. Ular jamiyat tomonidan belgilanadi, u jamiyat tomonidan shakllanadi. Ijtimoiy qadriyatlar faoliyat obyekti bo'lgan narsa bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir qiymat sifatida belgilanadi. Muayyan shaxsning qadriyatlari ijtimoiy muhit, u mansub bo'lgan ijtimoiy guruhlarining xususiyatlari ta'siri ostida shakllanadi.

2. Individual - har bir insonning shaxsiy tajribasi bilan belgilanadigan sub'ektiv e'tiqod va dunyoqarashni shakllantirish uchun asosdir. Shaxsiy qadriyatlar shaxs tuzilishining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular xulq-atvorni tartibga soluvchi bo'lib xizmat qiladi va inson faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'ladi [1].

Har bir inson o'ziga xos qadriyatlar to'plamiga ega. Ular bolalik davrida ota-ona tarbiyasi ta'sirida shakllana boshlaydi. Ular ulg'aygan sari jamiyat ularning rivojlanishida o'z izini qoldira boshlaydi. Bola o'qituvchilardan nimanidir o'rganadi, tengdoshlaridan nimanidir oladi, ommaviy axborot vositalari va internetdan nimadir oladi. Voyaga yetganida, ustuvorliklarning asosiy skeleti, qoida tariqasida, allaqachon shakllangan. Ammo bu uning umrining oxirigacha o'zgarmasligini anglatmaydi. Ba'zi hayotiy hodisalar insonni o'zi uchun muhim bo'lgan obyektlar va toifalar tizimini qayta ko'rib chiqishga majbur qilishi mumkin. Masalan, yomon tugaydigan zaharli, og'riqli munosabatlar sevgi kabi qadriyatning ahamiyatini pasayishiga olib kelishi mumkin. Hayotiy ustuvorliklar tizimi qanchalik uyg'un va muvozanatli bo'lsa, inson shunchalik muvaffaqiyatli va baxtli bo'ladi [3].

Qadriyatlarni o'rganishni birinchilardan bo'lib amerikalik psixolog Milton Rokich ko'rib chiqqan. U 1973-yilda shaxsni o'rganish metodologiyasini yaratdi. U yaratgan qadriyat shaxs shakllanishidagi asosiy kategoriya sifatida qaraladi [4]. M.Rokich o'z konsepsiyasida qadriyatlarini markaziy e'tiqod turi sifatida ko'rib chiqadi, ya'ni qadriyat e'tiqod tizimidagi pozitsiya. Shu bilan birga, muallifning ta'kidlashicha, qadriyatlar hayotning asosiy prinsiplaridan biridir. Shaxslar qadriyatlar tufayli o'zini